

TA'LIMDA TEKNOLOGIYA VA RAQAMLI RESURSLAR VA ZAMONAVIY  
TEXNOLOGIYALAR

*Guliston davlat pedagogika instituti  
talabasi Almatova Gulnoza Obidjon qizi*

### **Annotations**

Mazkur maqolada asosan ta'lismizdagi o'zgarishlar hamda raqamli texnologiya va resurslar haqida kenga tushunchaga ega bo'lish maqsad qilingan. Bugungi rivojlanayotkan zaminda zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lismizdagi sifatini yanada rivojlantirishdagi ahamiyati va o'rni, ularning ta'lismizdagi qo'llanilishi qanchalik zarur ekanligi xususida to'xtalib o'tamiz. Shuningdek, ta'lismizdagi amalga oshirilgan va oshirilayotgan bir qator islohotlar xususida so'z ketadi.

**Kalit so'zlar:** axborot, texnologiya, vosita, resurs, ta'lismiz, noan'anaviy, bilim, islohot, tashabbus, qaror, farmon, raqamli, an'anaviy, tarbiya, jarayon.

Bugungi kunda jamiyatimizda axborot texnologiyalari, axborot resurslari, kommunikatsion texnologiyalar tushunchalariga juda ko'p duch kelamiz. Shu bilan birgalikda axborot kommunikatsiya texnologiyalari deyarli barcha sohalarga kirib bordi. Jumladan ta'lismizdagi sohasida ham axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni juda ahamiyatli. Axborotlarni olish, qayta yuklash, tahrirlash, uzatish hamda almashish juda qulaylashdi. Bugungi kunda yurtimizda ham internet va axborot-kommunikatsiya kommunikatsiyalaridan foydalanuvchilar soni tobora ortib bormoqa va 2023-yildan beri statistikasiga ko'ra bu ko'rsatkich 76.6% ni tashkil qilar ekan. XXI asr "axborotlashtirish asri" deyilishi ham bejiz emas. Shuningdek bularning biz uchun bir qancha sanasa arzigulik qulayliklari mavjud. Asosan deyarli har bir jabhada elektron tizimga o'tish orqali birinchi navbatda ortiqcha qog'ozbozlikdan voz kechishga erishildi. Bundan tashqari masofaviy ta'lismizdagi dual ta'lismizdagi shakllari ham birinchi navbatda barcha uchun qulay bo'ldi. "Covid-19" virusi avj olgan bir paytda masofaviy ta'lismizdagi orqali talim va tarbiya



jarayonlarining uzluksiz davom etishini ta'minlashga erishildi. Yana shu jumladan edu maktab, hemis kabi platformalarning yaratilishi nafaqat pedagog o'qituvchi va o'quvchilar uchun, balki ota-onalar uchun ham bir muncha qulayliklarni berdi. Endi ular bu platformalar yordamida bemalol farzandlarining o'qishi ham o'zlashtirishini uyda turgan hola nazorat qila oladigan bo'ldi. Bu platformalarning yana bir jihat shundaki ular qulay bo'lishi bilan birgalikda xavfsiz hisoblanadi. Unda talaba yoki o'quvchining ma'lumotlar xavfsiz holda saqlanadi. Bugungi kunda ayniqsa har bir malakali pedogoglardan dars jarayonini axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) dan foydalangan holda tashkil qilish talab qilinmoqda va bu ham ta'lif oluvchini darsga yanada kuchliroq jalb qilish uchun yordam beradi. Umumiyoq o'rta ta'lif maklatblarida informatika fanining kuchaytirilishi hamda oliy ta'lif muassasalariga mediasavodxonlik fanlarining kiritilishidan ayni maqsad ham shundan iborat.

Yurtimizda ayniqsa IT sohasi, raqamli texnologiya, axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojiga juda kuchli e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini tashkil etish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi prezident farmoni qabul qilindi. Farmon bilan Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi (International Digital Technology Center – «ENTERPRISE UZBEKISTAN») tashkil etildi. 2024 yil 1 iyundan 5 yilgacha bo'lgan muddatga Markazda xorijiy kompaniyalar uchun qo'llaniladigan maxsus huquqiy rejim eksperiment tariqasida joriy qilinadi. 2022-yilda BMTning Elektron hukumat reytingida mamlakatimiz 18 pog'ona yuqorilab, 69-o'rinni egalladi. 2030-yilga borib, ushbu reytingda birinchi o'ttiztalikka kirish bo'yicha yillik chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, "O'zbekiston–2030" strategiyasida IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 5 milliard dollarga yetkazish maqsadi belgilangan. Buning uchun hududlarda IT infratuzilmani va vechur bozorini rivojlantirish, "local to global" tamoyili orqali mahalliy korxonalarini eksportga olib chiqish, yurtimizda xalqaro kompaniyalarning ofislarini ochish kabi ko'plab choralar ko'zda tutilgan. Shu asnoda prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan bir qancha farmon va qarorlar ishlab chiqilmoqda va bir muncha joylarga borib qilinayotgan islohotlar natijasini ko'zdan kechirmoqda. Prezident vazirlilikning "UZINFOCOM – Yagona integrator" ofisida

yaratilgan sharoitlarni ko‘zdan kechirdi, mutaxassislar bilan suhbatlashdi. "Sizlar hozirgi islohotlarda bizning eng ishongan kuchimiz. Kelajakda sizdek mutaxassislarga ehtiyoj yanada oshadi. Har bir soha va hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang rivojlanmasa, mamlakat rivojlanmaydi", - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu bilan birligida IT sohasiga alohida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, so‘nggi 3 yilda IT o‘quv markazlari soni 300 dan oshdi. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida ta’lim olib, sertifikatga ega bo‘lgan yoshlar soni 1 million 200 ming nafarni tashkil etdi. O‘tgan yildan boshlab xalqaro IT-sertifikatlarga o‘qish xarajatlarini 50 foizgacha qoplab berish yo‘lga qo‘yildi. 215 ming nafar yoshlar xalqaro onlayn kurslarni bitirib, sertifikat oldi. Bularni davom ettirgan holda, kelgusi yildan boshlab, har yili 5 ming nafar iqtidorli yoshlarni saralash, o‘qitish hamda halqaro mehnat bozoriga tayyorlash tizimi joriy etiladi. Xorazm viloyatida “Al-Xorazmiy vorislari” loyihasida o‘qitish boshlanadi. Umuman, IT sohasida 300 ming nafar yoshlarni xalqaro kompaniyalar talabiga mos dasturlar asosida tayyorlash va ish bilan ta’minalash rejalashtirilgan. Oxirgi yillarda ushbu yo‘nalishlarda katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Axborot texnologiyalari subyektlari uchun yaratilgan sharoitlar va imtiyozlar natijasida bunday korxonalar va ish o‘rinlari soni, xizmatlar eksporti ortib bormoqda. Xususan, 2017-yilda yurtimizda IT kompaniyalar soni 147 ta bo‘lgan bo‘lsa, hozirda 1 ming 600 taga yetgan. Ish o‘rinlari ham qisqa vaqtda 10 baravar ko‘payib, 24 mingtadan oshgan. 2017 yilda 600 ming AQSH dollari bo‘lgan eksport hajmi joriy yil yakuni bilan 300 million dollardan oshishi kutilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonini bir necha asosiy jihatlarda sezilarli o‘zgartirgan. Ular ta’limning sifatini va samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish, o‘qituvchilarning metodologiyasini takomillashtirishga yordam beradi. Texnologiyalarning ta’limga ta’siri haqida nazariy bilimlarga to‘xtalib o‘tamiz: Zamonaviy texnologiyalar ta’lim tizimini o‘zgartirishda bir nechta yondashuvlarni taklif etadi. Bu o‘zgarishlar quyidagi sohalarda namoyon bo‘ladi: Y tub o‘tganimizdek masofaviy ta’lim: Internetning rivojlanishi va video-konferensiya texnologiyalarining keng tarqalishi masofaviy ta’limni samarali o‘tkazish imkoniyatini yaratdi. Bu orqali o‘quvchilar geograflik cheklovlar va vaqtdan qat’i nazar o‘qishlari mumkin. Interaktiv o‘qish:

zamonaviy ta'limgan platformalari va o'quv resurslari o'quvchilarga interaktiv va o'zlashtirishi oson bo'lgan materiallarni taqdim etadi. Misol uchun, onlayn testlar, o'quv simulyatsiyalari va video-darslar. Raqamli resurslar ta'limgan tizimining ajralmas qismiga aylangan. Bunga quyidagilarni kiritish mumkin: elektron darsliklar va multimedia materiallari: elektron darsliklar va multimedia resurslari an'anaviy kitoblar o'rnini bosmoqda. Bu materiallar o'quvchilarga yanada interaktiv, tasvirli va qiziqarli ta'limgan taqdim etadi.

Demak biz xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, raqamli texnologiya axborot kommunikatsiya texnogiyalari orqali biz nafaqat ta'limgan va tarbiya jarayonida bir qancha yutuqlarga erishishimiz, o'qituvchining pedagogik faoliyat jarayonini ham samarali tashkil qila olishimiz mumkin ekan. Ta'limgan tizimiga raqamli texnologiyalarning to'liq joriy etilishi davlatimizning ham ayniqsa rivojlanishi uchun ulkan poydevor vazifasini o'taydi. Buning uchun ishlab chiqilgan loyiha va farmoyishlarni amaliyotga to'liq tatbiq qilishiz shart.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mirzaahmedova Dilnura Egamberdivevna.Raqamli texnologiyalarning ta'limgan sohasida qo'llanishi.
- 2.A.BMuxitdinov.Ta'limgan jarayoniga raqamli texnologiyalar va samarali usullarni joriy etish
- 3.Imomova Shafoat Mahmudovna, Norova Fazilat Fayzulloyevna.Ta'limgan jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosidagi takomillashtirish
- 4.Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. РОЛЬ КЕЙС-МЕТОДА НА УРОКАХ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ // Вестник науки и образования, 2022. № 4 (129). Часть 2. С.76.
- 5.Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф.РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ//UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ. №10(103), 2022. С. 30-32.
6. Shafoat IMOMOVA. BLOCKCHAIN VA UNING AXBOROT XAVFSIZLIGIGATA'SIRI//Pedagogik mahorat. Maxsus son (2021 yil, derkabr), 2021, C.88-90.

- 7 Shafoat IMOMOVA., Gulzira MIRZOYEVA. INTELEKTUAL TIZIMLARIDAN FOYDALANISH//Pedagogik mahorat. Maxsus son (2021 yil, derkabr), 2021, C.230-233.
- 8.Nigora BOTIROVA., Shafoat IMOMOVA. ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINING TASHKIL ETUVCHILARI VA TAQDIM ETISH SHAKLLARI//Pedagogik mahorat. Maxsus son (2020 yil, derkabr), 2020, C.224-22
- 9.IMOMOVA Shafoat Mahmudovna. MATEMATIKANI O\_QITISHDA MATEMATIK TIZIMLARDAN FOYDALANISH//Pedagogik mahorat. Maxsus son (2022 yil, derkabr), 2022, .
- 10.IMOMOVA Shafoat Mahmudovna., BOTIROVA Nigora Qoyirovna. Google classroom - —Virtual sinflı texnologiyasi//Pedagogik mahorat. Maxsus son (2022 yil)